

## **SURXONDARYO VILOYATINING JANUBIY XUDUDLARDA TARQALGAN TUPROQLARNING AGROEKOLOGIK XOSSALARI.**

**Xurramova Sabrina Muzaffar qizi**

*TerDU Tabiiy fanlar fakulteti Tuproqshunoslik ta`lim yo`nalishi 1-kurs talabasi  
Tojiboyeva Dilbar Nuriddin qizi*

*TerDU Tabiiy fanlar fakulteti Tuproqshunoslik ta`lim yo`nalishi 1-kurs talabasi  
Madaminova Madina Ravshan qizi*

*TerDU Tabiiy fanlar fakulteti Tuproqshunoslik ta`lim yo`nalishi 1-kurs talabasi  
Safarova Mohizar Shermuxammadovna*

*TerDU Tabiiy fanlar fakulteti Tuproqshunoslik ta`lim yo`nalishi 1-kurs talabasi*

**Annotatsiya:** Maqolada tuproq mustaqil tabiiy jins bo`lib, o`ziga xos tuzilishga, tarkib va yana bir qancha xossalarga hamda rivojlanish xususiyatlariga ega. Binobarin, yer yuzining unumdorlik xususiyatiga ega bo`lgan ustki g`ovak holdagi qatlami nazariy jihatlari yoritilgan.

**Kalit so`zlar** oziq-ovqat mahsulotlari. suv, havo, issiqlik, ammofos va mochevina o`g`itlar, zovurlar qazish, kollektor-drenajlar.

**Аннотация:** В статье грунт представляет собой самостоятельную природную горную породу со своей структурой, составом и рядом других свойств и особенностей развития. Поэтому уточнены теоретические аспекты плодородного верхнего пористого слоя земной поверхности.

**Ключевые слова:** продукты питания. вода, воздух, тепло, аммофосные и карбамидные удобрения, рывье канав, коллекторно-дренажный.

**Abstract:** In the article, the soil is an independent natural rock with its own structure, composition and a number of other properties and features of development. Therefore, the theoretical aspects of the fertile upper porous layer of the earth's surface have been refined.

**Key words:** Food. water, air, heat, ammophos and urea fertilizers, ditch digging, collector-drainage.

Tuproq qishloq xo`jalik ishlab chiqarishining birdan-bir vosiitasi va har bir mamlakatning bitmas-tuganmas tabiiy boyligi hamda kishilik jamiyatni uchun zaruriy oziq-ovqat mahsulotlari va turli xil xom ashyolar yetishtiriladigan asosiy va yagona manbadir.





Tuproq ma'lum sharoitdagi turli tabiiy omillar va tirik organizmlarning birgalikdagi o'zaro ta'siri natijasida yer yuzasidagi har xil tog' jinslarining nurashidan paydo bo'lgan. Tuproq mustaqil tabiiy jins bo'lib, o'ziga xos tuzilishga, tarkib va yana bir qancha xossalarga hamda rivojlanish xususiyatlariga ega. Binobarin, yer yuzining unumdoorlik xususiyatiga ega bo'lgan ustki g'ovak holdagi qatlami tuproq deyiladi.

O'rta Osiyo hududi tuproqlarini, ayniqsa cho'l zonasidagi taqir tuproqlarni, prolyuvial yotqiziqlar tarqalgan joylardagi taqir tuproqlarni va cho'l sahro zonasini tuproqlarini tekshirish hamda ularning tarkibi, xossalari o'rganish va unumdoorligini oshirish tadbirlarini o'rganib dehqonchilik yuritish borasida katta yutuqlarga ega bo'lindi.

Unumdoorlik, ya'ni tuproqning o'simliklarni suv, oziq moddalar, issiqlik va boshqa zarur hayot sharoitlari bilan ta'minlash qobiliyati tuproqning eng muhim va ajralmas asosiy belgisidir. Shu sababli, tuproq o'zining unumdoorlik xususiyati bilan tog' jinsidan farq qiladi.

O'simliklar hayoti uchun zarur oziqa moddalar, suv, havo va issiqlik qaydarajada bo'lishiga qarab, unumdoorlik turli tuproqlarda turlichcha bo'ladi. Masalan, chirindiga boy, donador strukturali tuproqlarda o'simliklarning yaxshi o'sib rivojlanishi uchun zarur bo'lgan sharoit qulayligi tufayli o'simliklarning hosildorligi yaxshi bo'ladi.

O'zbekiston territoriyasidagi tuproqlarni mukammal va har tomonlama chuqur o'rganish, tuproqlardan unumli foydalanish, usullarini amalda joriy etish va tuproq unumdoorligini oshirish orqali qishloq xo'jalik ekinlaridan yanada ko'proq hosil olish kabi muammolarni hal etish tuproqshunoslik fani oldida turgan hozirgi kundagi eng muhim vazifalardandir.

Surxondaryo viloyati janubiy mintaqalarida tarqalgan tuproqning oziqa erjimini yaxshilash usullarini izlab topish orqali qishloq xo'jalik ekinlari hosildorligini oshirish uchun tegishli tavsiyalarni ishlab chiqish bilan xarakterlanadi.

Sanoat salohiyati past agrar iqtisodiyotga ixtisoslashgan aholisi nisbatan tez o'sib borayotgan Surxondaryo viloyati tuproqlarning agrokimyoiy xossalari o'rganish orqali ekinlar hosilini oshirishning samarali yo'llarini izlab toppish maqsadida ilk bor har xil turdag'i yuqori konsentratsiyali murakkab o'g'itlarning tuproqqa yutilish jarayonini va istiqbolli murakkab polimer o'g'itlarning va unga tenglashtirilgan ammosof va mochevina o'g'itlarining tuproq oziqa rejimiga, g'o'zaning o'sish rivojlanishiga va hosildorligiga ta'sirini aniqlash orqali, eng samarali me'yorlarni belgilash, o'g'itlarni tuproqqa berish me'yorlarini va muddatlari to'g'risida ilmiy jihatdan asoslangan tavsiyalar ishlab chiqichdan iborat.





Hozirgi vaqtida Surxondaryo viloyatining umumiy yer maydoni 2,1 mln. gettarni tashkil etadi. Shundan 331,5 ming gettari sug'oriladigan, 287,7 ming gettari dehqonchilik qilinadigan yerdadir. Viloyatda o'rmon xo'jaligiga qarashli yerlar 277,0 ming gettar bo'lib, 198,5 ming gettari daraxtzor va butazorlardan iborat. 35,3 ming gettar yerni mevali bog'lar tashkil etadi.

Sug'orish suvi tanqis bo'lganligi sababli viloyatda mavjud sug'orish tizimining foydali koeffitsientini oshirish, tejamkorlik hisobiga ko'proq maydonlarni sug'orishga erishishi talab etiladi. Ammo amalda sug'orish ishlari noto'g'ri olib borilganligi, sug'orish tizimlari talab darajasida bo'limgaganligi tufayli yer osti suvlari ko'tarilib tuproqning sho'rlanish holatlari kuzatilmoqda.

Surxondaryo viloyatida sho'rlangan yerkarning umumiy maydoni 128600 gettarni tashkil etadi. Ayniqsa, Muzrobod, Sherobod, Angor, Qiziriq, Bandixon tumanlarida turli darajada sho'rlangan yerkarni uchratish mumkin.

Sho'rlangan yerlar holatini yaxshilash tadbirlarining eng asosiysi - yer osti suvlari sathini pasaytirish, yangi zovurlar qazish, eskilarini tozalash va sho'r yuvish ishlarini olib borishdir.

Surxondaryo zonasiga tuproqlari sho'rlanishning asosiy sabablaridan biri, bu zonada yog'ingarchilik kam bo'lib, bug'lanish ko'p bo'lganligi bo'lsa, yer osti sizot suvlarining yer yuzasiga yaqin joylashganligi va suv tarkibidagi tuzlar bug'lanishi sababli tuproqning yuza qismida qolib, tuproq sho'rlanishining ikkinchi sababi hisoblanadi.

Yana eng muhim sabablaridan sug'orish texnikasiga riosa qilmasdan, shudgorlarni ko'llatib sug'orish, yer yuzasining bir tekisda shudgorlanmaganligi, ya'ni past-baland xolicha tekislansandan shudgorlanib, suvning sho'ri tuproq yuzasida qolib ketishi, yerni obi-tobiga keltirmasdan sug'orish ham tuproqning sho'rlanishga olib keladi.

Shamol va suv eroziyasi ham tuproqning sho'rlanishga olib kelishi mumkin. Chunki shamol ta'sirida sho'rlangan tuproqlar bir joydan ikkinchi joyga ko'chishi oqibatida tuproqning sho'rlanishiga olib keladi. Bu kabi sho'rlanishning oldini olish uchun ixotazorlar tashkil qilish kerak. Relef sharoitlari murakkab bo'lgan dalalarda sug'orishni to'g'ri tashkil qilish, suvdan tejamli foydalanish imkonini bersa, ikkinchi tomonidan tuproq yuvilishini oldi olinadi. Tuproq sho'rlanishining yana bir sababi shudgorlarga og'ir texnikalarning ko'p kiritilishi, tuproq obitobiga kelmasdan shudgorlash, tuproq g'ovak qatlaming zichlanishiga olib keladi va buning natijasida tuproqning mexanik tarkibi og'irlashib, qatlamlarning zichlanishi yuzaga keladi va sho'r suvlar 3 m dan ham chuqur bo'lganda tuproq yuzasiga ko'tariladi va tuproqning sho'rlanishiga sabab bo'ladi.



Bir yilda ekin maydonlarining ko'p martalab sug'orilishi, tuproq tarkibida har xil tuzlarning to'planib borishiga va natijada tuproqning yana qayta sho'rланishiga olib keladi. Sho'rланган tuproqlar juda ko'p muammolarni keltirib chiqarmoqda. Bajarilgan ilmiy tadqiqot ishlar yuzasidan quyidagi xulosalar chiqarildi:

Birinchidan, tuproqlarning dehqonchilik muammosidan chiqib ketishiga va ekin ekish uchun yaroqsiz holga kelib qolishi;

Ikkinchidan, faqatgina galofit o'simliklar o'sib, boshqa o'simlik ekishning iloji bo'limganligiga;

Uchinchidan, ekilgan ekinlarning juda kamchilik qismi o'sib chiqib, shunda ham hosil bermasligi, hosildorlikning pasayib ketishi va bundan tashqari sho'rланган yerlarda faqatgina sho'rga chidamlı ekinlar ekishga olib kelmoqda;

To'rtinchidan, sho'rланган yerlarni tiklash, ya'ni rekultivatsiya qilish juda katta mablag'larni talab qiladi. Ya'ni, sho'rланган yerlarga kollektor-drenajlar o'tkazish, zovurlar qazish va eskilarini tozalashning o'zi bo'lmaydi. Buning uchun bir necha o'nlab texnikalar oylab ishlashi, yoqilg'ining ko'p sarflanishi nosoz texnikalarni ishga jalg qilishdan oldin ularni sozlash ham juda ko'p mablag'ni talab qiladi.

### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:**

1. Kimberg N. V. Pochvы рустынноy зоны Uzbekistana, Tashkent, 1974 г.
2. Tojiev U., Namozov X., Nasretdinov Sh., Umarov K. O'zbekiston tuproqlari, Tashkent, 2004 г.
3. Методика полевых и вегетационных опытов с хлопчатником, Ташкент, СоюзНИХИ, 1977 г.
4. Dala tajribasiuslubiyoti, Toshkent, O'zPITI, 2007 у.
5. Методы агрохимических и агрофизических анализов почв и растений, Ташкент, СоюзНИХИ, 1977 г.

